

«Obuna – 2012» mavsumi davom etmoqda!

TONG yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

www.tongyulduzi.uz

2011-YIL
3-OKTABR
N:40
(66841)

ISSN – 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqarib boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

HAMMAMIZNING GAZETAMIZ!

Qadrli bolalar!

Mamlakatimizda bolalar nashrlariga «Obuna – 2012» mavsumi boshlandi. Shu jumladan, «Tong yulduzi» gazetasiga ham kelasi yilga obuna bo'lishingiz mumkin. Gazetangizda kelgusi yilda ham yanada qiziqarli, rang-barang, mazmunli, dolzarb maqola va xabarlar, she'r, ertak va hikoyalar chop etiladi. U sizga eng yaqin do'st, maslahatchi vazifasini o'taydi.

«Obuna – 2012» mavsumini yuksak darajada o'tishini ta'minlab, «Tong yulduzi», «Klass», «Gulxan», «G'uncha» nashrlariga eng ko'p obunani uyushtirgan maktab, litsey, kollejlarga «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi quyidagi mukofotlarni ajratdi:

1. Maktab, litsey va kollejlarga:

1-o'rin – 2 dona kompyuter;

2-o'rin – 3 dona televizor;

3-o'rin – 3 dona DVD pleyer.

2. «Obuna – 2012»ni tashkil etishda faol ishtirok etganlarga:

10 dona diktofon.

**Bu ezgu ishda barchangizga
omad yor bo'lsin!**

SEVIMLI NASHRINGIZNI
O'QISHGA SHOSHILING!



«O'ZBEKISTON» KITOBLARIN G'OLIB!

O'zbekiston Mustaqilligining 20 yilligiga bag'ishlab O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, «Kitob dunyosi» gazetasi tahririyati mamlakatimiz nashriyotlari o'rtasida «Eng yaxshi kitob» III respublika tanlovini o'tkazdilar. Tanlov yakuniga ko'ra, 2010-2011-yillarida «O'zbekiston» NMIUda nashr qilingan quyidagi kitoblar tanlov g'olibi bo'ldilar:

1. «Vatan tarixi» nominatsiyasi bo'yicha «Temur tuzuklari» kitobi I darajali Diplom bilan;
2. «Art kitob» nominatsiyasi bo'yicha «Qadimgi O'zbekiston buddaviylik va buddaviy meros» kitobi II darajali Diplom bilan;
3. «O'zbek mumtoz adabiyoti» nominatsiyasi bo'yicha Alisher Na-

voiyning «Hikmatlar kitobi II darajali Diplom bilan;

Qutlaymiz!

4. «Ijtimoiy-siyosiy adabiyot» nominatsiyasi bo'yicha «Jahon tarixining muhim sanalari» kitobi II darajali Diplom bilan;
5. «Bolalar va o'smirlar adabiyoti» nominatsiyasi bo'yicha Raim Farhodiyning «Vatanim bayramlari, bolalik ayyomlari» kitobi III darajali Diplom bilan taqdirlandilar.



Nashrlarni va mualliflarni
yuksak mukofotlar bilan
qutlaymiz!

NOMINGIZGA

Tongda osmon yorishadi
Qarolikning qolmas izi.
Qalbingizga nur bag'ishlar,
Hamroh bo'lsa «Tong yulduzi»!



YOZDIRINGLAR!

O'quvchilar, oshiqinglar,
Bu Sizlarning minbaringiz!
She'r, hikoya, xanda, xabar,
Yo'llayvering har biringiz.

So'z mulki kon, imkoni keng,
Undan boylik qazdiringlar.
Gazetamiz barchaga teng,
Nomingizga yozdiringlar!

AXTAMQULI



YULDUZNING KUN TARTIBI

Yulduzning sira tinimi yo'q, sinfdan tashqari tadbirlar, tanlovlar, to'garaklar, uy vazifalari-yu va boshqa yumushlar degandek... Ehe, qay birini aytgin?! Ammo har bir ishga ulguradi. Barchasiga qanday ulgurasiz, deya so'raydiganlarga javobi tayyor:

– Mening kun tartibim bor. Unga qat'iy amal qilganim uchun ham hammasiga ulguraman-da!

Yaqinda tumanda bir xushxabar tarqaldi: «Namangan viloyati, Uchqo'rg'on tumanidagi 32-maktab o'quvchisi Yulduz Abdug'aniyeva «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» Respublika tanlovida faxrli uchinchi o'rinni egalladi». Bu xabar uning ustozlari hamda do'stlarini birdek quvontirdi.

Ushbu tanlovning viloyat bosqichida yetti mingdan ziyod o'quvchi ishtirok etgan bo'lsa, ular orasida Yulduzning ijodiy ishlari yuqori baholandi.

– Tanlov sabab ko'plab adabiyotlar, jumladan, Prezidentimiz kitoblari bilan tanishib chiqdim. Istiqlolimizning yigirma yillik tarixini chuqurroq o'rganar ekanman, ona yurtimga, uning zahmatkash insonlariga yanada mehrim ortdi. Birgina mening go'zal Namanganim misolida ko'radigan bo'lsak, u kun sayin o'bod bo'lmoqda. Yurtimning yanada farovon bo'lishi va taraqqiy etishi uchun bor kuchimni sarflashga tayyorman, – deydi Yulduz hayajonini yashirolmay.

Biz Yulduz bilan faxrlandik. Ana shunday ijodiy ishlarning senga doim g'alaba keltirsin!

OLMOS




Aziz bolalar, bugun yurtimizda musiqa san'ati rivojiga alohida e'tibor qaratilayotgani hammamizga yaxshi ma'lum. Poytaxtimizda va viloyatlarda musiqa yo'nalishidagi yangi-yangi kollej, litsey va maktablar qad rostlab, faoliyat ko'rsatmoqda. San'atimiz rivoji xalqimizning madaniy yutug'idir. O'zbek san'ati tarixining ildizlari juda qadimga borib taqaladi. Jumladan, XIV-XV asrlarda u qanday rivoj topgan? Bugun shu to'g'risida ma'lumot beramiz.

SAN'ATKORLARNING YASHASH JOYI

Ma'lumotlarda XIV asrda hokimlar farmoniga binoan, san'atkorlarning yashash joylari alohida e'tibor qaratilgani qayd etilgan. Shunga ko'ra, «Xonandalar mavzei», «Sozandalar mahallasi», «Bastakorlar ko'chasi» joriy etilgan.



MUSIQA SOZLARI



Amir Temur va temuriylar davrida turli-tuman musiqa sozlari mavjud bo'lgan. Masalan, ud sozi. G'arbda shu soz asosida lyuto, lyutnya kabi sozlar yaratilgan. Ijroda tanbur yetakchilik qilgan.

MAQOMLAR

XVI asrdan «Shashmaqom» turkumi rivoj topgan. O'zbek zaminida Xorazm maqomlari, Farg'ona, Toshkent maqom yo'llari, turli cholg'u asarlar yuzaga kelgan. Bular qatorida 12 ta arab maqomi, 12 ta uyg'ur maqomi, 7 ta eron dastgohi, 7 ta ozarbayjon maqomi va 6 ta o'zbek, tojik maqomlari yuzaga kelganini ham aytish kerak. Yunus Rajabiy bobongiz esa o'zbek maqomini juda yuksak darajaga ko'targan.



SHAHNOZA tayyorladi

BILIM, ODOB MASKANI



Dilnoza NISHANOVA,
buxgalteriya
fakulteti
o'quvchisi:

– Maktabda matematika faniga qiziqardim. Shu bois, hujjatlarimni kollejning buxgalteriya fakultetiga topshirdim. Omadim kelib, mana shu kollej o'quvchisi bo'ldim. Mehribon va bilimdon ustozlarimdan saboq olib, namunali o'quvchi bo'lish niyatidaman.



Oydiya YUSUFBOYEVA,
buxgalteriya
fakulteti
o'quvchisi:

– Kollejimizda faqat qizlar tahsil olishadi. Ustozlarimizdan bilim va odob-axloq saboqlarini olamiz. Odob qizlarning husni ekanligini yaxshi bilamiz. Shuningdek, ma'naviy olamimizning ham go'zal bo'lishiga intilamiz.

Yurtimiz istiqloлга erishgach, yosh avlodning mukammal bilim olishi uchun barcha sharoitlar yaratildi. Yangi qurilgan maktab, litsey va kollejlarda bilim olayotgan o'quvchilar bunday e'tiborga javoban bir qancha muvaffaqiyatlarga erishib kelmoqdalar.

Ular orasida Toshkent ixtisoslashtirilgan xotin-qizlar kollejining talabalari ham bor. Kollejda yaratilgan imkoniyatlardan keng foydalanayotgan o'quvchilarga 58 nafar malakali, fidoyi pedagoglar saboq bermoqdalar.

Mazkur bilim maskanida 180 nafar o'quvchiga mo'ljallangan majlislar va sport zali, 3 ta o'quv laboratoriya xonalari, axborot resurs markazi, yangi zamonaviy o'quv texnika vositalari o'quvchilar ixtiyorida. Internet tarmog'iga ulangan axborot resurs markazida talabalar darsdan bo'sh vaqtlarida bilimlarini yanada boyitmoqdalar. Bu haqda kollej direktori **Oftobxon Tojiboyeva** shunday deydi:

– Kollejimiz 2008-2009-o'quv yilidan faoliyat yuritib kelmoqda. O'quvchilarimizga mustahkam bilim berish maqsadida bizda har bir o'qituvchini sinovdan o'tkazib, ishga qabul qilish an'anaga aylangan. Kollejning ma'naviyat-ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari **Abdunabi Oripov** qizlarimizning ma'naviy olamini boyitish, kasbiy ta'lim bo'yicha direktor o'rinbosari **Ulug'bek Xurramov** ularning kasbga bo'lgan mehrini oshirish maqsadida tez-tez tadbirlar tashkillashtirishadi.

Tadbirlarda faol ishtirok etib, o'z iqtidorlarini namoyon qilayotgan qizlar mazkur bilim dargohining faxri ekan. Ularning fikri bilan o'rtoqlashdik:

Kollej jamoasi o'quvchilarga puxta bilim berish bilan birga, asosiy e'tiborni qizlarning odob-axloqiga, ularning ma'naviy olamini boyitishga qaratishayotgani nur ustiga a'lo nur. Umid qilamizki, bu dargohda tahsil olayotgan o'quvchilar ham odobi, ham bilimi bilan barcha tengdoshlariga o'rnak bo'la oladilar.

Gulyuz BAHODIR qizi



Nozima MANNOPOVA,
huquqshunoslik
fakulteti
o'quvchisi:

– Bu yil orzum amalga oshdi. Endilikda o'zim yoqtirgan yo'nalish bo'yicha tahsil olmoqdaman. Kollejimizdagi barcha ustozlarimiz fidoyi. Ularning ishonchini oqlab, kelgusida yetuk huquqshunos bo'lishga qat'iy qaror qildim.



Zulayho TOYIROVA,
huquqshunoslik
fakulteti
o'quvchisi:

– Bolaligidan huquqshunos bo'lishni xohlardim. Bu orzu shu fakultetga o'qishga kirishimga turtki bo'ldi. Bundan xursand bo'lib, endilikda faqat «5» bahoga o'qishni o'z oldimga maqsad qilib oldim.

Muhammadnozim bugun har qachongidan erta uyg'ondi. Nonushta payti buvasini bayram libosida ko'rib, kulib qo'ydi. Buvasini maktabga uchrashuvga chaqirishgan. U kishini hamma yaxshi ko'radi. So'zlab bergan hikoyalarini ancha paytgacha eslab yurishadi. Buvasi usta paxtakor. Bir paytlar g'o'za sug'orishning yangi usulini topgani el ichra shov-shuv bo'lgandi.

Maktab bilan uylarining orasi uzoqroq bo'lsa-da, katta yo'l yoqalab piyoda yo'lga tushishdi. Yo'lining o'ng tomoni paxtazor, go'yo butun dalaga oppoq choyshab to'shalgandek. Bir payt bobo «voy, voy» degancha yerga cho'kkalab qoldi. Muhammadnozim hayron bo'lib qaradi. Bobo yerda yotgan bir hovuch paxtani qo'lga olib, «puf-puf»lab tozaladi. Keyin esa ko'zlariga surtdi.

– Bolam, ehtiyot bo'lib yo'lining narigi tomoniga o'tib, mana shu paxtani terimchi qizlarga berib kel, savob bo'ladi. Ilohim issiq kunlarda nest-nobud qilmay terib olishsin, baraka topkurlar.

Muhammadnozimga bobosining bu gapi g'alati tuyuldi. Bir hovuch chiqar-chiqmas paxtani ko'tarib olib, serqatnov yo'lining narigi tomoniga o'tish, ochig'i, malol keldi. Nabirasining taysallanib turganini ko'rib, boboning ham qoshlari chimirildi va o'zi ko'chaning narigi tomoniga yo'l oldi. Muhammadnozim shosha-pisha uning qo'lga yopishdi:

– Menga bering, bobojon, o'zim tashlab kela-man.

Nabirasi ko'chaning narigi betiga o'tib kelguncha otaxon chuqur xayolga cho'mgancha turib qoldi. Bolaning issiqqina kafti qo'lga tekkanda, o'ziga keldi.

BOBO VA NABIRA



– Barakalla, o'g'lim, katta xirmonga sening ham hissang qo'shildi. Baraka bo'ladi. Bir paytlar men ham sendek o'quvchilik paytlarim kunduzlari ko'sak terib, kechasi bilan chuyib chiqardik. Onam rahmatli bir tolasini ham uvol qilmaslikka harakat qilardi. Yerga tushsa, terib olardi. Bu hammamizning rizqimiz-ku, axir...

O'sha kungi uchrashuv juda qiziqarli o'ldi. Boboning har bir hikoyasi, ayniqsa, rizq-ro'zimizni uvol qilmaslik haqidagi rivoyatlari hammani o'ylantirib qo'ydi. 6-sinf o'quvchisi Muhammadnozim bobosi bilan yurgan yo'ldan hamon maktabga qatnaydi, endi u ham yo'l-yo'lakay to'kilgan paxtalarni terib boryapti. Maktabga yetguncha uch-to'rti hovuch bo'lib qoladi. Qaytishda ham shunday qiladi. Ko'chalarining boshidagi ulkan chinor tanasiga ilib qo'yilgan qutiga yo'ldan tergan paxtalarini soladi. Paxta terimiga ketayotgan ilk terimchi qutidagi paxtani olib ketadi. Aytishlaricha, qutichadan paxta olgan terimchining paxtasi barakali bo'larmish. Muhammadnozimning o'rtoqlari undan ibrat olishibdi.

Tengdoshingizning bu ishidan chindan ham ibrat olsa arziydi-a, aziz bolajonlar! Balki siz ham paxtazorga yaqin yo'llardan o'tarsiz. Yerda yotgan paxtalarga ko'zingiz ham tushgandir. Agar shunday bo'lsa, erinmasdan terib oling. Do'stlaringiz kabi maxsus quticha yasab, to'kilgan paxtalarni unga solib qo'ying. Yoki terimchi aka-opalaringizga uzating. Uvol bo'lmasin! «Toma-toma ko'l bo'lur» degan naql bejiz aytilmagan.

Yusuf ABDULLAYEV



Aziz bolalar!
Yodingizda bo'lsa, ushbu
ruknimiz orqali Sizlarni Muso
Xorazmiy bobongizning hayot
yo'li bilan tanishtirgan edik.
Bizga yo'llagan ko'plab
maktublaringizda bundan juda
mamnunligingizni izhor etgansiz.
Bugun Abu Rayhon Beruniy
haqidagi ma'lumotlar bilan
tanishasiz.

Tabarruk ona zaminimizda yashab o'tgan, jahon fan olamida yorqin iz qoldirgan buyuk insonlardan yana biri Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniydir. Taniqli amerikalik tarixchi Sartonning XI asrni «Beruniy asri» deb ta'riflaganini eslasak, vatandoshimizning fan olamida naqadar yuksaklikka ko'tarilganini his qilamiz. Beruniy qoldirgan bebaho ilmiy meros uning cheksiz iste'dod egasi, tengi yo'q olim bo'lganligidan dalolat beradi.

Abu Rayhon Beruniy 973-yilning 4-sentabrida qadimgi Kot, hozirgi Beruniy shahrida tavallud topgan. Amudaryoning o'ng sohilida joylashgan bu shahar o'sha davrlarda ulkan ilm-fan, ma'rifat markazlaridan biri bo'lgan. Beruniy zamonasining barcha fanlarini mukammal bilgan. Ayniqsa, u falakiyot (astronomiya), fizika, riyoziyot (matematika), ilohiyot, ma'danshonlik fanlarini puxta egallagan. Ana shu zikr etilgan fanlar rivojiga qo'shgan ulkan

hissasi, olamshumul ixtirolari uchun nomi buyuk siymolar qatoridan joy oldi.

Beruniy bolaligidanoq ta'lim olishga juda qiziqqan. Ayniqsa, o'z davrining mashhur olimi Abu Nasr ibn Iroq bilan tanishuvi uning hayotida muhim rol o'ynadi. U o'z ustida tinmay izlanadi, o'qib-o'rganadi.

Beruniy aniq fanlar bilimdonigina emas, shoir va adabiyotshunos ham edi. U ona tilidan tashqari, arab, so'g'diy, fors, suryoniy, yunon va qadimgi yahudiy tillarini yaxshi bilardi. Keyinchalik qadimiy Hindistonga borib, sanskrit (hind tili)ni ham o'rgandi. Hatto o'sha tilda o'zining eng mashhur «Hindiston» nomli asarini yaratdi.

Beruniy ilmiy merosida «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asari benihoya qadrlidir. U bu mashhur asarini Jurjonda muhojirlikda yoza boshlagan va minginchi yillarda tamomlagan. O'sha davrda kitoblar kamligi, bo'lganda ham ko'plari bir necha nusxada qo'lyozma xolida ayrim shaxslar qo'lida saqlanganini hisobga olganda, Beruniy yaratgan asar bir necha asrlarda nihoyatda mashhur bo'lganligidan darak beradi.

Beruniy o'sha davrning mashhur ilm-

beradi. Bu asarning arabcha va forsch nusxalari bizgacha yetib kelgan. Astronomiyaga oid yana bir asari «Al-Qonun al-Ma'sudiy» (Ma'sud qonuni)ni o'rta asr olimlari yuksak baholaganlar.

Beruniyning ilmiy merosi juda boy va juda katta ahamiyatga ega kitoblarni o'z ichiga olgan. U hammasi bo'lib 152 ta kitob va risola yozgan. Beruniy 1029 ta yulduzning koordinatlari va yulduz kattaliklari qayd etilgan yulduzlar jadvalini tuzgan.

Beruniy 1492-yilda Amerika qit'asini ochgan ispaniyalik dengiz sayyohi Xristofor Kolumbdan 500 yilcha avval o'zining «Al-Qonun al-Ma'sudiy» asarida G'arbiy yarim sharda yaxlit bir quruqlikning, keyinchalik Amerika deb nomlangan qit'aning mavjudligini aniq ta'kidlab o'tgan.

Jahonni lol qoldirgan buyuk olim Abu Rayhon Beruniy shunday katta iste'dod egasi edi. Endilikda yurtimizda Mustaqillik tufayli ulug' allomaning munosib vorislari yetishib chiqmoqda:

*Yillar o'tar oradan,
O'tar qancha zamonlar,
Kelar turfa insonlar,
O'zgaradi davronlar.
Dovrug' solib jahonda,
Ishonaman, ishonimg,
Bosh ko'tarar bu yurtida
Minglab Abu Rayhonlar...*

Jabbor RAZZOQOV,
O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan jurnalist

BERUNIY – BUYUK ALLOMA

fan markazi bo'lmish «Ma'mun akademiyasi» faoliyatida muhim rol o'ynagan. U bu ilm-fan markazini bir qancha muddat boshqargan va o'sha yerdan yana bir mashhur olim Ibn Sino bilan tanishgan, birgalikda faoliyat yuritgan.

«Xorazmning mashhur kishilari», «Turar-joylar orasida masofalarni aniqlash uchun manzillarning chegaralarini belgilash» (mashhur «Geodeziya») asarlari olimning dunyoqarashini belgilashda muhim omil hisoblanadi. «Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar» asarida esa o'sha zamon astronomiyasi bilan bog'liq bo'lgan bir qancha fanlar haqida aniq ma'lumotlar



(Hikoya)

Qishloqda g'alati bir voqea sodir bo'ldi. Amakimning o'g'li Dilshod og'ilxonaning shiftidagi qush uyasidan mittigina chumchuq bolasini olib chiqdi. Bechora chumchuqchani hali qanotlari ham chiqmagan, bir parchagina go'sht edi. U Dilshodning qo'lida tinimsiz chirqillab, onasini izlayotgandek edi. Rosti, bechoraga rahmim keldi.

– Iltimos, uni joyiga qaytarib qo'y. Bu ishing yaxshi emas, palaponning uvoliga qolasan, – dedim Dilshodga yalinib. Biroq, u mening so'zlarimga e'tibor bermadi. Aksincha, chumchuqchani har xil qiliqlar bilan qiynay boshladi.

Chumchuqchani ovoz chiqmay qoldi. Ne ko'z bilan ko'raylikki, palapon nobud bo'lgan edi. Dilshodning qilmishidan juda qattiq xafa bo'ldim.

Oradan bir kun o'tdi. Odatdagidek, Dilshod o'rtoqlari bilan futbol o'ynashga chiqib ketgan edi. O'yin mahali u dabdurustdan yiqilib tushdi. Uyga ovozinig boricha yig'lab keldi. U o'ng qo'lini mahkam ushlab olgan edi. Ota-onasi uni zudlik bilan shifoxonaga olib ketishdi. Ma'lum bo'lishicha, uning qo'l suyagi darz ketgan ekan. Ko'p o'tmay u qo'llarini bog'lagancha qaytib keldi.

Hovli o'rtasidagi loy supaning chetiga kelib o'tirgan Dilshod og'riqning zo'ridan lablarini tishlagancha yon-atrofqa qarar ekan, to'satdan sal narida yotgan bir narsaga ko'zi tushdi. Diqqat bilan nazar tashlasa, u o'tgan kuni o'zi nobud qilgan chumchuq bolasi ekan.

Jonsiz palaponni avaylabgina qo'lga oldi-da, hovlining bir chetiga olib borib ko'mib qo'ydi va «Endi hech qachon biron-bir jonzotga ozor bermayman», dedi.

Eshitishimcha, yaqinda tuman miqyosida o'tkazilgan «Hayvonlarni muhofaza qilish» mavzusidagi insholar tanlovida u birinchi o'rinni egallabdi.

Raxshona HAMROYEVA,
Hamza tumanidagi 206-maktabning 4-«V» sinf o'quvchisi

ESHITDINGIZMI?

«O'zbekiston» AK va Hindistonning «Olive Telecommunication» kompaniyasi o'rtasida mamlakatimizda smartfon hamda planshet kompyuterlar ishlab chiqarish to'g'risida kelishuv imzolandi.

«O'zbekistonda ishlab chiqarilgan» yorlig'i bo'lgan sifatli mahsulotlarni ko'rganingizda, ko'zingiz quvnaydi. Mashina, motor, tola ishlab chiqarish, turli mahsulotlar tayyorlaydigan zavod, fabrikalar, korxonalarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz. 20 yil ichida jonajon mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunday katta o'zgarishlar olamshumul ahamiyatga ega, albatta.

Sizga yana bir yangilikni aytadigan bo'lsak, endi o'zimizda ham smartfon va planshet kompyuterlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. Bu ulkan rejani 2012-yildan boshlab 2016-yilgacha amalga oshirish rejalashtirilgan Navoiy erkin iqtisodiy-industrial zavodi zonasida barpo etiladi.

Matbuot materiallaridan foydalanildi

O'zbekiston bolalar va oilalarni qo'llab-quvvatlash assotsiatsiyasi, O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar nashri «Tong yulduzi» gazetasi YUNISEF tashkiloti ko'magida respublika o'quvchilari orasida O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 20 yilligi va Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning 22 yilligiga bag'ishlangan «Bola huquqlari bolalar nigohida» tanlovini o'tkazadi.



O.VOSIXONOV chizgan rasm

TANLOV SHARTLARI QUYIDAGICHA:

1. Qanday bola huquqlarini bilishingiz va ular hayotingizda qanday o'rin tutishi haqida insho yozing. Buning uchun Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlari kafolatlari» to'g'risidagi qonuni kabi sizning huquqlaringizga doir qonunlarni o'rganishingiz lozim.

Huquqlaringiz orasida qay biri siz uchun eng muhimi va yana qanday huquqlar yetishmayotgani haqida mushohada qilib ko'ring.

Insholar hajmi ikki daftar varag'idan oshmasligi kerak. Shu mavzuda she'r yozishingiz yoki

huquqiy boshqotirma tuzib yuborishingiz ham mumkin.

2. Bir o'ylab ko'ring-chi, o'qigan ertaklaringizning qay birida (o'zbek, rus,

chet el ertaklari) bosh qahramonning haq-huquqlari poymol qilinadi? O'qigan ertaklaringiz asosida rasmlar chizib, «Yangi talqindagi ertak» yozib yuboring. Ularda sevimli qahramonlaringiz huquqlari haqida ham fikr yuriting. O'zingizning sifatli fotosuratigizni ham qo'shib yuborsangiz, maqsadga muvofiq bo'lardi.



Bolajonlar, shunday qilib, **HUQUQLAR OLAMIGA** sayohatga otlanamiz! Tanlov noyabr oyida yakunlanadi. Barchangizga omad yor bo'lsin!

Mazkur tanlovni o'tkazishdan maqsad – Siz aziz o'quvchilarning huquqiy savodxonligingizni oshirish, bilimlaringizni boyitishdan iborat. Tanlovda qatnashib, bilganlaringizni o'rgatib, bilmaganlaringizni o'rganing! Ijodiy ishlaringizni quyidagi manzilga yuboring: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100129. «Tong yulduzi» gazetasiga. «Bola huquqlari bolalar nigohida» tanloviga deb yozishni unutmang.

TAHRIRIYAT

Har tong Prezident bobosidan olgan chiroyli papkasini quchoqlab, bilimlar qasri tomon oshiqayotgan bolajonlar orasida jajji Ulug'bek ham bor. U bu yil poytaxtdagi 249-maktabning 1-sinfiga qadam qo'ydi.

BIZ A'LOCHI BO'LAMIZ!



Bog'cha yoshidanoq harflarni tanib, sanashni bilib olgani uchunmi, saboqlarni o'zlashtirishi ancha oson bo'lyapti. Harflarni, sonlarni yozishda biroz qiynalyapti, xolos. Hechqisi yo'q, ustoz! Nailya opa ko'magida bularni ham o'rganib oladi.

– 1-sinf o'quvchilariga dars berishning o'ziga yarasha mas'uliyati, mashaqqati bo'lishi bilan bir qatorda gashti, zavqi ham bor, – deydi 1-«D» sinf rahbari Nailya Abdullayeva. – O'quvchilarimning har biri o'zga bir olam: qay biri sho'x, o'yinqaroq, qay biri uyatchang, tortinchoq. Ayrimlarining erakliklari hali qolmagan, salga yig'lab yuborishadi. Ba'zilar dars paytida uxlab qolishadi, ularni yaxshi gap bilan ohistagina uyg'otib olaman-da, o'yin tarzidagi dam olish mashqlariga jalb qilaman. Xullas, biri-biridan shirin bu kichikintoylar bilan hecham zerikmayman, charchoqni ham unutam...

«Puxta bilim olib biz, kelajakni quramiz», deya o'qishga astoydil kirishib ketgan bu jajjilar kuni kecha buvisidek mehribon, shirins o'z ustozlarini kasb bayrami bilan qutlab, she'rlar, qo'shiqlar aytishdi, raqsga tushib, ajoyib kecha o'tkazishdi. A'lochi, aqlli o'quvchi bo'lishga so'z berishdi.

O'z muxbirimiz

ANJIR

Na yonbag'irlab o'sar,
Na bir ko'kka sapchir.
Bir gullamay ikki bor
Mevalaradi anjir.



TUTUN

Salqin shamol esdi
Esgani uchun,
Tutunning bag'ri –
Bo'lmas bus-butun.

ONA

Siz men uchun olamda,
Yagonasiz, har qachon.
Ta'rif etayin desam,
So'z topilmas, onajon.

SHIFOKORGA
YARASHDI

Har bir xasta, bemorga,
Chin ko'ngildan qarashadi.
Ezgu yo'lda yolg'on so'zlash
Shifokorga yarashadi.

Madinabonu SAIDOVA,
Toshkent viloyati, Angren shahridagi
33-maktabning 5-sinf o'quvchisi



QUYOSHIMSIZ

Bizlar bir niholmiz, siz esa bog'bon,
Ulug' bir yo'l boshchi, munis, mehribon.
Shogirdlar qoshida parvona har on,
Biz uchun eng aziz inson, ustozlar.

Nomingiz abadiy qolar dilimda,
Yaxshi kunlarimda, umr yo'limda.
Nurli kelajakning kaliti qo'limda,
Nurli quyoshimiz, aziz ustozlar!

Otabek KOMILOV,
xorijiy tillarga ixtisoslashgan
umumta'lim maktabining
7-«G» sinf o'quvchisi

SOG'INAMAN

Onamdayin ulg'aytirgan kaftlarida,
Kamol topdim mehrlarin taftlarida,
Ko'rmoqlikni istaymiz biz saflarida,
Ustozlarim, sizni juda sog'inaman!

Qo'llaringiz ilk bor qalam tutqazganim,
Yuragimdan alamlarni ketkazganim,
Orzularim yo'llariga yetkazganim,
Ilk ustozim, sizni juda sog'inaman.

Qaytib kelmas ekan endi o'shal damlar,
Ba'zan eslab xotirlasam, ko'zda namlar,
Bo'lmasin hech qalbingizda g'ubor, g'amlar,
Ustozlarim, sizni juda sog'inaman.

Mohinur QAYUMOVA,
O'zMU talabasi

USTOZ

Ustoz degan ulug' nom
Qalbmida yashar har on.
Qo'limga tutib qalam
Yo'lim etdi charog'on.

Tanitib oq-qorani,
Berdi menga ko'p bilim.
Sahnalarda kuyladim,
Yangradi ona tilim.

Sabina DADAJONOVA,
Yakkasaroy tumanidagi
91-maktabning 8-sinf o'quvchisi

KUCHUGIM QAND
YER EKAN

Buvijonim, buvijon,
Kuchugim qand yer ekan.
Vovullab o'z tilida
Menga «Rahmat» der ekan.

Qandni yegach quvonchdan,
Yonib turar ko'zlari.
Qulog'imga xush yoqar
«Vov-vov» degan «so'zlari».

Dildora O'SARQULOVA,
Yangiyo'l tumanidagi
62-maktabning 5-sinf o'quvchisi

BILIMDON QIZ
QO'SHIG'I

Besh baho olib kelsam,
Yasharib ketar bobom.
– Barakalla, qizim, – deb
Bag'riga bosar momom.

Ota-onam shodlanib:
– Dilbarim, zebom, – deydi.
Xullas, uydagi hamma
Shirin so'zini deydi.

Besh baho, a'lo baho,
Qadrli, ma'no baho!
Mutolaaga zo'r bersang,
Doimo hamroh baho.



DEHQON

Dalasidek bag'rikeng dehqon,
Ezgu niyat qilsa chin dildan,
Barakali, cho'ng bo'lib xirmon
Duo olar mehnat-la eldan.

Umida NORQOBILOVA,
Surxondaryo viloyati, Sho'rchi
tumanidagi 54-maktabning 6-«A»
sinf o'quvchisi

(Davomi. Boshi
o'tgan sonlarda)

– E, bolam! Baraka topkur,
bu nima qilganing, bizlarni
aqlidan ozdirmoqchimisiz? –
deb so'rabdi qariya.

Tanish tovoqdagi tillolarni
ko'rgan temirchining ko'zi
kosasidan chiqib ketayozibdi.

– Bu nima o'zi? – debdi
ularga imo qilib.

– Tillo! – debdi chol.

– Tilloligini ko'rib turib-
man. Xonning g'aznasini
o'mardingizmi yoki xazina
topdingizmi, ota? – deb
so'rabdi temirchi.

– Biz emas, sen topgansan.

– Men?

– Ha, sen.

– Ota, iltimos, ochig'ini
aying. Hozir jinni bo'lib
qolaman.

– Biz jinni bo'ldik
allaqachon.

– Ota, yotig'i bilan
tushuntiring. Men hech nimani
anglayolmayapman.

– Chindanmi?

– Chindan. Bu tillolarni kim
berdi? Kimniki bular?

– Seniki.

– Meniki?..

– Ha!

– O'limdan xabarim bor,
ammo bu tillolardan xabarim
yo'q.

– Tovoqni tanidingmi?

– Ha, tanidim. Kecha sizga
shunda palov chiqargandim-da.

– Ha, barakalla.

– Men sizdan tovoqni emas,
tillolarni so'radim.

– Shu tillolar palovning
tagidan chiqdi.

– Yo'g'-e, hazillashmang...

– Haqqast rost.

– Ikki dunyoda ham
palovning tagidan tillo
chiqar ekanmi?

– Chiqar ekan. Mana,
ko'rib turibsan-ku!

– E, Xudoyim-e, nimalar
bo'lyapti o'zi?

– Men ham hayronman.

Kechagi chiqargan palovingdan
yetarlicha suzib oldim-u, qolga-
nini tovoq'i bilan issig'ida ye-
yishsin, deb men ham beva-be-
chora yon qo'shninga ilindim.

Ular kechki ovqatni yeb bo'lish-
gan ekan. Ertalab palovni istib
yeymiz, deb tovoqqa bir lagan

yopib, olib qo'yishibdi. Ertalab
oshni isitish uchun tovoqni qo-
zonga ag'darishsa, ichi to'la tillo

emish. Qozon olovda, palov qo-
zonda qolib ketaveribdi. Ona-bo-
la yugurgilab tilloni tovoq'i bilan

mening oldimga olib chiqishdi.

Birgalashib, mana, senikiga
keldik.

– Tavba, tavba, astag'firullo,
bu yerda bir sir bor! – debdi te-
mirchi yoqasini ushlab. Keyin

mehmonlarga hayratlanib qarabdi.

Shoh bilan vazirning hayrati
ham unikidan zarracha kam
emas ekan.

Shoh jandasining ichki
cho'ntagidan xuddi tovoqdagi

hamyonga o'xshagan bir

hamyon chiqardi.

– Yo'g'-e, hazillashmang...

– Haqqast rost.

– Ikki dunyoda ham
palovning tagidan tillo
chiqar ekanmi?

– Chiqar ekan. Mana,
ko'rib turibsan-ku!

– E, Xudoyim-e, nimalar
bo'lyapti o'zi?

– Men ham hayronman.

Kechagi chiqargan palovingdan
yetarlicha suzib oldim-u, qolga-
nini tovoq'i bilan issig'ida ye-
yishsin, deb men ham beva-be-
chora yon qo'shninga ilindim.

Ular kechki ovqatni yeb bo'lish-
gan ekan. Ertalab palovni istib
yeymiz, deb tovoqqa bir lagan

yopib, olib qo'yishibdi. Ertalab
oshni isitish uchun tovoqni qo-
zonga ag'darishsa, ichi to'la tillo

emish. Qozon olovda, palov qo-
zonda qolib ketaveribdi. Ona-bo-
la yugurgilab tilloni tovoq'i bilan

mening oldimga olib chiqishdi.

Birgalashib, mana, senikiga
keldik.

– Tavba, tavba, astag'firullo,
bu yerda bir sir bor! – debdi te-
mirchi yoqasini ushlab. Keyin

mehmonlarga hayratlanib qarabdi.

Shoh bilan vazirning hayrati
ham unikidan zarracha kam
emas ekan.

Shoh jandasining ichki
cho'ntagidan xuddi tovoqdagi
hamyonga o'xshagan bir
hamyon chiqardi.

jandasining ichki cho'ntagidan
xuddi shu nusxadagi bir hamyon
chiqarib, kampirning qo'lga
beribdi.

– Bu nima? – so'rabdi u
hayron bo'lib.

– Tovoqdagi hamyonning
sherigi, – debdi vazir.

– Menga? Nimaga,
nima uchun?

– Halol-poki-
zaligingiz, mo'min-
muslimaligingiz
uchun.

– Lagandagi
nasiba esa temir-
chiniki, – debdi
shoh.

Chol-u kampir,
temirchi yoqalarini ushlab,
Yaratganga shukronalar aytar

ekanlar, shoh-u vazir astagina

– Ota, bu sizga.

Chol hamyonga tikilib
qarab, tovoqdagi ham-
yonga aynan o'xshashligini

muhridan tanibdi va
nima gap ekanligini
darrov anglabdi:

– Nimaga? Qaysi qil-
gan xizmatim uchun? –
deb so'rabdi u.

– Iymon-e'tiqodingiz
butligi, mo'min-
musulmonligingiz uchun.

Shu payt vazir ham
shohning imosi bilan

– Ota, bu sizga.

Chol hamyonga tikilib
qarab, tovoqdagi ham-
yonga aynan o'xshashligini

muhridan tanibdi va
nima gap ekanligini
darrov anglabdi:

– Nimaga? Qaysi qil-
gan xizmatim uchun? –
deb so'rabdi u.

– Iymon-e'tiqodingiz
butligi, mo'min-
musulmonligingiz uchun.

Shu payt vazir ham
shohning imosi bilan

xayr-xo'sh qilib, tashqariga
chiqishibdi.

– Bular aql-u xushidan
ozmasa bo'ldi, – debdi vazir.

– Ularni yo'qchilik,
muhtojlik shu kungacha aql-u
xushidan ozdira olmagan ekan,

demak, to'qlik bunday
qilolmaydi.

– Sizdek shohi bor
fuqaroning armoni yo'q, –
debdi vazir.

– Aksincha, shunday
fuqarolari bor shohning armoni
yo'q.

Ikki darvesh: odil shoh-u,
dono vazir o'zaro suhbatlashib,
saroy tomon yo'l olibdilar.

(Tamom)

Qadam Sayid MUROD



MUAYTHAI WORLD CHAMPIONSHIPS



Aziz bolajonlar, barcha sport ishqibozlari qatori poytaxtimizning «O'zbekiston» sport-sog'lomlashtirish majmuasida bo'lib o'tgan muaytay bo'yicha jahon chempionati musobaqalarini Siz ham miriqib tomosha qilgandirsiz-a?

O'zbekiston madaniyat va sport ishlari vazirligi, havaskor va professional muaytay assotsiatsiyasi, Sharq yakkakurashlari va jang san'atlarini rivojlantirish markazi, xalqaro muaytay federatsiyasi (IFMA), Osiyo professional va havaskor muaytay federatsiyasi (FAMA) hamkorligida tashkil etilgan mazkur nufuzli musobaqada dunyoning yetmishga yaqin davlatlaridan kelgan 800 nafardan ziyod sportchi o'zaro bellashdi.



Poytaxtimiz mezbonlik qilgan jahon chempionatida yurtimiz sharafini himoya qilgan muaytaychilarimiz mahorat bobida hech kimdan kam emasliklarini isbotlashdi. Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni, ayniqsa, bolalar sportini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida ahamiyat qaratilib, yoshlarimizga ko'rsatilayotgan alohida e'tibor va g'amxo'rliklarga umidli sportchilarimiz ulkan g'alabalari bilan munosib javob qaytarishdi. Yoshlar o'rtasidagi bahslarda Firdavs Hoshimov, Asqarjon Yallayev, Ilhom Sotivoldiyev, Jasur Mirzamuhammedov, Jahongir Yo'ldoshev, Temur Hamroyev, Alijon Isroilov, Islom Ma'rupov, Muhammad Nusratov, Shohruh Baxtiyorov, Behzod Erkinov, Ilhom Rustamov, G'ulom Halimov chempionatning oltin medallarini qo'lga kiritishdi. Shuningdek, bir qator umidli sportchilarimiz dunyo birinchiligining bronza medallariga ham egalik qilishdi.

Mazkur nufuzli musobaqani katta qiziqish bilan tomosha qilgan, muaytaychilarimizni qo'llab-quvvatlab turgan muxlislar orasida

–Voy, bolam, haligi mashg'ulotlaringda seni ham shunday kaltaklashadimi? – so'radi uning maktabi qoshidagi muaytay to'garagiga qatnashishiga ishora qilib.

– O'yijon, bu kaltaklash emas, bu sport! Katta bo'lsam, men ham ulardek mohir sportchi bo'laman. G'alabalarim sharafiga yurtimiz bayrog'i baland hilpiraganda, men bilan faxrlanib o'tirasiz, – dedi Sardor ishonch bilan...

MUAYTAYCHILARIMIZ G'ALABASI

chirchiqlik Sardor Botirov ham bor edi.

U maktabdan kelib, televizor qarshisiga o'tirib oldi. Onasining, avval kiyimlarini almashtirib, ovqatlanib olgin, bolam, deganiga ham qaramay, oynayi jahon orqali namoyish etilayotgan muaytay bo'yicha jahon chempionati musobaqalarini tomosha qila boshladi. Uni tushlikka chaqirish uchun kirgan onasi Tursunoy opa ham musobaqalarga qiziqib ketib, o'g'lining yonidan joy oldi.

Bugungi chempionlarimizga havas qilib, yuzlab, minglab o'g'il-qizlar qalbida sportga mehr uyg'unayotgani quvonarli hol. Kelgusida sportchi bolajonlarning hammasi ham chempion bo'lolmasligi mumkin, lekin ularning sog'lom, barkamol bo'lib ulg'ayishlariga biz kafil!

Feruza JALILOVA

Kitob – sirlar, sehirler olami. Bolaligim o'tgan oltmishinchi yillarda, hali ko'pchilik xonadonlarda televizor yo'q edi. Shundanmi, kekxa-yu yosh birday kitobga intilardi. Men kamolga yetgan Tuzel qishlog'i dalalariga u paytlarda paxta ekilardi. Kech kuz chog'larida uylarga ko'rak tarqatilardi. Dadam kolxozda brigadir edi. Brigada yeridan terilgan hamma ko'rak bizning uyimizga to'kilardi. Qo'ni-qo'shnilar kechqurun biznikiga yig'ilib, tancha atrofida ko'rak chuvishardi. Dadam esa ularga Xodi Zarif to'plagan «Go'ro'g'li» turkumiga kiruvchi ikki jildli o'zbek xalq dostonlari – «Malika ayyor», «Oftobxon», «Jambil qamali», «Ravshanxon»ni chiroyli ohang bilan o'qib berardilar. Ayollar, ayniqsa, «Kuntug'mish» dostonini yaxshi ko'rib tinglashardi. Xolbekaning egizlaridan biri suvga tushib ketganida, yum-yum yig'ilashar, uni baliq ichidan sog'omon chiqqanini bilgach, xayriyat, Xudoga shukr, deb quvonishardi. Onalar, doston eshitasan, deya bolalarini ham yetaklab kelishardi. Doston voqealariga berilib ketib, bir arava ko'rak chuvib qo'yishganini sezmay qolishardi. Biz bolalar ham doston ta'sirida uyquni unutib qo'yardik. Men, dugonam Turdibibi, ukam Odiljon bir tinglashda dostonning

ko'plab boblarini yodlab olardik. Maktabda o'rtolarimizga aytib berardik. Ustozimiz Muharram opa «Sinfidan tashqari o'qish» darsida shu parchalarni yodlatardilar, keyin «besh» baho qo'yardilar. Butun qishloq Go'ro'g'li, Kuntug'mish xayoli bilan yashardi.

Keyin shu kitoblar xususida munozara uyushtiramiz», derdilar. Maktabdagi deyarli barcha o'quvchilar kutubxo-



Qalbmizda kitobga mehr o'shanda paydo bo'lgan bo'lsa, ajabmas. Maktabda Tosh to'g'on opa ismli ajoyib kutubxonachimiz bo'lardi. Ular kutubxonaga keltirilgan badiiy adabiyotlardan sinfga olib kirardilar-da: «Qarang, bolajonlar, kutubxonamizga mana bunday kitoblar olib keldim. Unda sizga atalgan ajoyib she'rlar, hikoyalar yozilgan. Darsdan keyin olib o'qinglar.

naga a'zo edi. 5-sinf daligimda kutubxonadan Sohib Jamolning «Guli siyoh», «Qizil chinnigul» kitoblarini, dugonam Nozima «Qo'rqinchli Tehron» kitobini olmoqchi bo'lganimizda, Tosh to'g'on opa: «Bu kitoblarni o'qituvchilar o'qishadi, sizlarning yoshingizga to'g'ri kelmaydi. O'quvchi o'z yoshiga mos kitoblarni o'qisa, mavzuni tez tushunadi, yaxshisi, mana bu kitobni o'qing», deya V.Gyugoning «Gav-rosh» kitobini bergandi. Biz «Gav-

rosh»ni hatto sahnalashtirgan ham edik. Uyga olib borgan kitoblarimizni esa ota-onalarimiz ham o'qishar va dasturxon atrofida muhokama qilardik.

Dadam bir kuni shahardan menga S.Marshakning «Jo'xori polvon», Zafar Diyorning «Tustovuq» e'tak kitoblarini olib keldilar. Har ikki kitob ham she'riy e'tak bo'lib, ularning har bir sahifasiga shunday ajoyib rasmlar ishlangan ediki, hali-hanuz ko'z oldimda turadi. Har gal tustovuq-qirg'ovulni ko'rsam, beixtiyor ko'z oldimga o'sha kuyovlikka taraddud ko'rayotgan tustovuq keladi va shoimig:

«Bir zamonlar tustovuq, Uylanmoqchi bo'libdi.

To'y kunlari yaqin deb

Quvonchlarga to'libdi...» degan satrlari yodinga tushaveradi. Har bir xo'roz esa o'sha tustovuqqa aldanib qolgan xo'roz bo'lib ko'rinaveradi. Nazarimda, ota-onamizning kutubxonligimizga e'tibori, kutubxonachimizning o'z kasbining fidoyisi bo'lganligi bois biz kitobga do'st tutinganmiz. Shularni o'ylasam, bola kitobni sevishi uchun, avvalo, oilada kitobga mehr bo'lishi, kutubxonachi esa bolalar bilan ishlay bilishi kerak ekan-da, degan xulosaga kelaman.

Muhabbat HAMIDOVA



Zohidjon

JAVOBINI TOPING

Ot va Tuyu yo'lda borishardi.


– Men juda ham charchab ketdim, – nolib goldi Ot.

Tuyu: – Nimaga noliysan? Hozir

men sening yukingdan bir


qop olib o'zinnikiga qo'shsam, yukim senikidan 2 marta oshib ketadi. Agar men o'zinnikidan bir qop olib senikiga qo'shsam, ikkimizning yukimiz teng bo'ladi, – debdi.

Otda va Tuyada nechta qop bor?



Jahongir

To'g'ri to'rtburchakning ichida nechta uchburchak bor?



O'qi, qiziq!

YOLG'ONCHI MAYMUNLAR

Tadqiqotchilar maymunlarda aldash odati borligini aniqlashdi.

Kuzatishlarga ko'ra, hayvonot bog'i sharoitida saqlangan maymunlar hech qanday xavf bo'lmasa-da, yirtiqch hayvonlarning ovozlari ko'p chiqarishar ekan.

Tabiiyki, bu sheriklarini cho'chitib yuborgan va ularning aksariyati ovqatlanishni to'xtatib, yashirinishga urinishgan. Bundan unumli foydalangan «yolg'onchi» maymunlar ularning yemishlarini yeb qo'yishgan. Olimlarning fikricha, maymunlar qorinlarini to'ydirish maqsadida, o'z sheriklarini ongli ravishda aldashar-kan.

DILOROM



Xorazm viloyati, Bog'ot tumanidagi 3-son ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan maktab-internatining 6-«A» sinf o'quvchilari

QO'LNING UZMAY

Shakldagi nuqtadan boshlab barcha oq yo'l bo'yicha bir yo'ldan ikki marotaba o'tmagan holda chizish bilan diqqatingizni sinab ko'ring-chi!



Foziljon ORIPOV tuzdi

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYTIOV

Dizaynerlar:
Fazliddin
SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV
Rassom:
Feruz MATYOQUBOV
Navbatchi:
Gulyuz ORIFJONOVA

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Svetlana INOMOVA,
Odina JAMOLDINOVA,
Jahongir MUSAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 31668
Buyurtma N: J 2823

XANDALAR

– Nega yig'layapsan? – so'radi yo'ldan o'tib ketayotgan chol bolakaydan.

– Kuchugimni yo'qotib qo'ydim.

– Yig'lama, gazelaga xabar ber, kuchuging topiladi, – deya yupaldi chol bolani.

– Buvajon, kuchugim hali o'qishni bilmaydi-da!

– dedi bola ko'z yoshini artib.



– O'qituvching senga inshoni men yozib berganimni sezmadimi? – deya so'radi ola o'g'lidan.

– Sezdi shekilli. Nega desangiz, agar o'zing yozganingda, bunchalik ko'p xato qilmasding, dedilar...



Bir bola do'stidan so'radi:

– Ukangning yoshi nechada?

Do'sti javob berdi:

– Agar ukangning yoshiga yana shuncha va yarmini qo'shsak, uning yoshi 10 da bo'ladi. Aytinch, bolaning yoshi nechada?

QIZIQARLI MASALALAR



Oltita aka-uka bor ekan. Ular bir-biridan 4 yoshdan katta ekan. Kattasi esa eng kichigidan 3 marta katta ekan. Qani, toping-chi, aka-ukalarning yoshi nechada?